



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RIVOJINING JORIY HOLATI TAHLILI

Abduqahhorov Azizbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-8483-3936

azizbekabduqahhorov1992@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada 2020–2025-yillar davomida O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. YaIM, sanoat, qurilish, chakana savdo, xizmatlar sohasi hamda tashqi savdodagi kichik biznes ulushi bo'yicha barqaror o'sish tendensiyalari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, sohada mavjud muammolar – moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari cheklanganligi, kadrlar salohiyati pastligi, raqobat muhitidagi nomutanosiblik va eksport mahsulotlarining xalqaro standartlarga to'liq mos emasligi kabi masalalar ham yoritilgan. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, YaIM, xizmatlar sohasi, eksport, raqobat, moliyalashtirish.

АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Абдукаххоров Азизбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассмотрены основные показатели развития малого предпринимательства в Узбекистане за 2020–2025 годы. Показано устойчивое увеличение доли малого бизнеса в ВВП, промышленности, строительстве, розничной торговле, сфере услуг и внешней торговле. Также освещены сохраняющиеся проблемы – ограниченный доступ к финансовым ресурсам, недостаток квалифицированных кадров, дисбалансы в конкурентной среде и несоответствие экспортной продукции международным стандартам. В статье даны предложения по устранению этих проблем и повышению роли малого бизнеса в национальной экономике.

Ключевые слова: малое предпринимательство, экономический рост, ВВП, сфера услуг, экспорт, конкуренция, финансирование.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP

Abdukahhorov Azizbek

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article analyzes the key indicators of small business development in Uzbekistan during 2020–2025. It highlights the steady growth of small business contributions to GDP, industry, construction, retail trade, services, and foreign trade. The study also discusses persisting challenges, including limited access to financial resources, lack of skilled workforce, market competition imbalances, and the incompatibility of export products with international standards. The paper proposes practical recommendations aimed at enhancing the role of small business in the national economy.

Keywords: small business, economic growth, GDP, services sector, export, competition, financing.

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va biznes yuritish uchun qulay muhit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, biznes jarayonlaridagi ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish maqsadida keng ko'lamli iqtisodiy va huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda sohaga oid ko'plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilingan bo'lsa-da, ularning ko'pligi va tarqoqligi tadbirkorlar uchun amaliyotda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda (Statistika qo'mitasi, 2024, Qaror, 2023). Shu sababli, xalqaro tajriba asosida yagona huquqiy hujjatni ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqib, "O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi" ishlab chiqildi va 2024-yilda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi (parliament.gov.uz, n.d.).

Yangi huquqiy hujjat 8 bo'lim, 29 bob va 315 moddadan iborat bo'lib, avval amal qilgan 8 ta qonun va 10 dan ortiq qonunosti hujjatlarini birlashtirdi. Kodeksda:

tadbirkorlik subyektlarini kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratish mezonlari aniq belgilandi;

yakka tartibdagi tadbirkorlarga qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish huquqi berildi;

davlat organlarining tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklashga qaratilgan normalar mustahkamlandi;

davlat nazoratining shakllari (tahlil, monitoring, profilaktik tadbirlar va tekshiruv) huquqiy asosda belgilandi;

nazorat organlarining huquqiy javobgarligi oshirildi va asossiz tekshiruvlarga chek qo'yildi;

tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozlarning yagona reyestri joriy qilindi;

yangi majburiyatlarni belgilovchi normativ hujjatlar qabul qilingandan keyin bir yil davomida o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish taqiqlanmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda kichik biznes yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 60–70 foizini, aholi bandligining esa 70–80 foizini ta'minlaydi. Shu boisdan ham ushbu sektorni qo'llab-quvvatlash davlatning iqtisodiy siyosati va milliy rivojlanish strategiyasida alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab kelinmoqda.

O'zbekistonda kichik biznesning rivojlanishi 1990-yillardan boshlab, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida asos solingan bo'lsa-da, ayniqsa 2017-yildan keyingi davrda tub iqtisodiy islohotlar bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Prezident farmonlari va qarorlari orqali tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari soddalashtirildi, soliq yuklari kamaytirildi, kreditlar va imtiyozli moliyaviy resurslarga keng yo'l ochildi. Bularning barchasi kichik tadbirkorlikning jadal rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratdi.

Ayniqsa, 2020–2025-yillar davri mazkur sektor uchun sinovli, ammo muhim davr bo'ldi. 2020-yilda pandemiya oqibatlari iqtisodiyotda qisqa muddatli pasayishni keltirib chiqargan bo'lsa-da, keyingi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilgan qo'llab-quvvatlash dasturlari, imtiyozli kredit siyosati va soliq yengilliklari natijasida kichik biznes faoliyati tiklanib, yanada barqarorlashdi.

2021–2022-yillardan boshlab kichik biznes investitsiyalarni jalb etishda va eksport faoliyatini kengaytirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. 2023–2024-yillarda esa uning tashqi savdodagi ulushi ortib, eksportning qariyb uchdan bir qismini ta'minladi. Shu bilan birga, savdo, xizmatlar va transport sohalarida ham o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi. 2025-yilning dastlabki yarmida esa kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoqlarida yetakchi mavqega ega bo'ldi.

Demak, kichik tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiy tizimida nafaqat ichki bozorni to'ldirish va aholi bandligini ta'minlashda, balki tashqi savdoni kengaytirish va milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda ham asosiy tayanch sifatida shakllanmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rnini va roli masalasi xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar ushbu sektorning iqtisodiy barqarorlik, bandlik va innovatsiyalarni rivojlantirishdagi o'rnini alohida ta'kidlaydi.

Masalan, Porter (1998) o'zining raqobat ustunligi nazariyalarida kichik biznesni iqtisodiy tizimda raqobatni shakllantiruvchi asosiy kuchlardan biri sifatida ko'rsatgan. Unga ko'ra, kichik korxonalar tezkor moslashuvchanlik va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish qobiliyati bilan yirik kompaniyalardan farq qiladi. OECD (2019) tomonidan tayyorlangan xalqaro hisobotlarda esa kichik biznesning rivojlanishi nafaqat bandlikni oshirishi, balki hududiy iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirishda ham muhim omil bo'lishi qayd etilgan. Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish va ilmiy-innovatsion muhitni shakllantirish iqtisodiy o'sishning barqaror drayveriga aylanadi.

Mintaqaviy darajada olib borilgan tadqiqotlarda ham kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini chuqur tahlil qilingan. Masalan, Rossiya tajribasida kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari iqtisodiy inqiroz davrida ishlab chiqarish hajmlarining keskin pasayishini yumshatishda asosiy omil bo'lgan. Qozog'istonda esa davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalar kichik biznes uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratgan, ayniqsa infratuzilma va xizmatlar sohalarida sezilarli natijalar qayd etilgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham ushbu masala keng tadqiq etilgan. Ismoilov (2020) kichik biznesning iqtisodiy islohotlardagi o'rnini tahlil qilib, uning bandlikni ta'minlashdagi rolini asoslab bergan. Mirzayev (2022) kichik tadbirkorlikni moliyalashtirishdagi muammolarni ko'rsatib, kredit siyosatining samaradorligi va amaliy muammolarini o'rgangan.

Qodirov (2023) esa kichik biznesning tashqi savdodagi ahamiyatini tadqiq etib, eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar uchta asosiy yo'nalishda to'planadi: birinchidan, kichik biznesning iqtisodiy o'sish va YaIMdagi ulushini oshirishdagi roli; ikkinchidan, bandlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini; uchinchidan, tashqi savdoda va eksport salohiyatini kengaytirishda tutgan o'rnini. Shu asosda aytish mumkinki, xalqaro va mahalliy tajriba O'zbekiston sharoitida ham kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ilmiy va amaliy asoslarni taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlil 2020–2025-yillar davomidagi rasmiy statistik ko'rsatkichlarga asoslangan. Tadqiqotda taqqoslama tahlil, dinamik qatorlar tahlili va grafik vizualizatsiya usullari qo'llanildi. Shuningdek, kichik biznesning YaIM, sanoat, qurilish, savdo, xizmatlar va tashqi savdodagi ulushi hisobga olinib, ularning rivojlanish tendensiyalari aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2020-yilda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 55 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 57,5 % ga yetdi. Mazkur o'sish kichik tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi barqaror o'rnini mustahkamlaganini anglatadi. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari, kredit resurslari va soddalashtirilgan hisob-kitob tartiblari yaratilgani ushbu dinamikaga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Biroq, ayrim hududlarda kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlari past bo'lgani sababli, hududlar kesimida teng taqsimot kuzatilmayapti.

2020-yilda kichik biznesning sanoatdagi ulushi 30,1 % bo'lib, 2025-yilda 33,2 % ga yetdi. Bu jarayon kichik ishlab chiqarish korxonalarining modernizatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga intilayotganidan dalolat beradi. Energiya tejovchi texnologiyalar, kichik sexlar va oilaviy bizneslarning ko'plab sanoat tarmoqlarida faoliyat boshlashi natijani

oshirdi. Shu bilan birga, muammo sifatida kichik korxonalar yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishda yetarlicha tajriba va resursga ega emasligi ko'zga tashlanmoqda.

1-jadval

**Kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat asosiy ko'rsatkichlaridagi o'rnini
(Statistika qo'mitasi, 2024)**

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (1-yarim yillik)
YalMdagi ulushi (%)	55,0	55,7	56,3	56,8	57,2	57,5
Sanoatdagi ulushi (%)	30,1	31,0	31,8	32,4	32,9	33,2
Qurilishdagi ulushi (%)	74,0	75,0	76,1	76,8	77,2	77,6
Chakana savdodagi ulushi (%)	78,0	79,1	80,0	80,7	81,2	81,8
Xizmatlar sohasidagi ulushi (%)	50,0	51,2	52,6	53,5	54,2	54,8
Eksportdagi ulushi (%)	23,0	24,6	26,1	27,4	28,5	29,7
Importdagi ulushi (%)	46,0	47,3	48,6	49,7	50,8	51,8

Qurilish sohasi kichik biznes faoliyatining eng yuqori ulushiga ega bo'lib, 2020-yilda 74 % bo'lgan ko'rsatkich 2025-yilda 77,6 % ga yetdi. Buning asosiy sababi — uy-joy dasturlari, infratuzilma ob'ektlari va xususiy qurilish kompaniyalarining davlat dasturlarida faol ishtirok etishi. Kichik qurilish firmalari moslashuvchanligi va arzon xarajatlari tufayli bozorda raqobatbardosh bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, ayrim kichik korxonalar qurilish sifatini nazorat qilishda me'yoriy talablarga to'liq amal qilmayotgani muammo bo'lib qolmoqda[1].

Chakana savdo hajmida kichik biznesning ulushi 2020-yilda 78 % bo'lsa, 2025-yilga kelib 81,8 % gacha oshdi. Bu ko'rsatkich shuni anglatadiki, ichki bozor asosan kichik biznesga tayanmoqda. Elektron savdo platformalari, franchayzing asosida tashkil etilgan do'konlar va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining kengayishi ushbu o'sishga sabab bo'lgan. Ammo muammo sifatida shuni qayd etish mumkinki, kichik biznes vakillari import qilinadigan mahsulotlarga yuqori darajada bog'langan. Bu esa milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini cheklab qo'yimoqda.

2020-yilda xizmatlar sohasida kichik biznes ulushi 50 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 54,8 % ga yetdi. Ayniqsa, turizm, transport, axborot texnologiyalari va ta'lim xizmatlarida o'sish yuqori sur'atlarda kechmoqda. Xizmatlar sohasida kichik biznesning faoliyati ichki bozorni diversifikatsiya qilish bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, bu sohada kichik biznesning malakali kadrlar bilan ta'minlanishi yetarli darajada emasligi va xizmatlar sifati xalqaro standartlarga to'liq javob bermasligi muammoli jihat sifatida qolmoqda.

Eksportdagi ulushi 2020-yilda 23 % bo'lgan kichik biznesning hissasi 2025-yilga kelib 29,7 % gacha o'sdi. Importdagi ulushi ham 46 % dan 51,8 % gacha oshgan. Bu kichik biznesning nafaqat ichki bozorni to'ldirishda, balki tashqi bozorlarga chiqishda ham faol ekanini ko'rsatadi. Xususan, oziq-ovqat, to'qimachilik va charm mahsulotlari eksportida kichik tadbirkorlar yetakchi bo'lib bormoqda. Ammo tashqi savdoda ulkan muammo sifatida eksport mahsulotlarining sifat va standartlarga moslashuvi, logistika xarajatlarning yuqoriligi va xorijiy bozorlar haqidagi axborot yetishmasligi qayd etilishi mumkin.

2020–2025-yillarda kichik biznes barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha izchil o'sish tendensiyasini namoyish etdi. YalMdagi ulushidan tortib tashqi savdodagi faolligigacha, barcha yo'nalishlarda kichik biznes iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida shakllandi. Shu bilan birga, muammo sifatida — moliyaviy resurslardan foydalanishdagi cheklovlar, kadrlar yetishmovchiligi, raqobatbardoshlik darajasining pastligi va eksportdagi cheklovlar — hali ham sohaning to'liq salohiyatini yuzaga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi joriy yil iyun oyi uchun respublika bo'ylab tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar asosida biznes muhiti tahlili natijalarini e'lon


qildi[11]. Tahlil natijalari asosida biznes muhiti indeksi shakllantirildi, u biznesning hozirgi holati va yaqin kelajakdagi rivojlanishi bo'yicha baholarni aks ettiradi.

2025 yil iyun oyida O'zbekistondagi biznes muhiti ko'rsatkichlari ijobiy yo'nalishda davom etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli yaxshilanish qayd etildi. Jumladan, sanoat tarmog'ida biznes muhiti indeksi 5 bandga o'sib, 59 bandga yetdi. Shuningdek, istiqboldagi kutilmalar indeksi 73 banddan 83 bandgacha ko'tarildi, bu esa tadbirkorlarning yaqin kelajakda faoliyatdan yuqori natijalar kutayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, joriy holat indeksi 37 band darajasida barqaror qoldi. So'rov natijalariga ko'ra, so'nggi uch oyda sanoat korxonalarining 38 foizi biznesi yaxshilanganini bildirgan (2024 yil iyunida bu ko'rsatkich 32 foiz edi). Kelgusida esa korxonalarning 79 foizi sharoit yanada yaxshilanishini kutmoqda, bu o'tgan yilgi 71 foizlik ko'rsatkichdan yuqori.

Qishloq xo'jaligi sohasida ham o'sish dinamikasi kuzatildi: umumiy indeks o'tgan yilga nisbatan 3 bandga ko'tarilib, 59 bandni tashkil etdi. Joriy holat indeksi 35 banddan 41 bandga oshgan bo'lsa, istiqboldagi kutilmalar 80 banddan 83 bandgacha yetdi. So'rov natijalariga ko'ra, dehqon va fermer xo'jaliklari rahbarlarining 49 foizi joriy faoliyatni "qoniqarli" deb baholagan, 22 foizi ishchi kuchi sonining oshganini qayd etgan, 79 foizi esa yaqin kelajakda biznes yanada rivojlanishini kutmoqda.

Xizmatlar sohasida biznes muhiti eng sezilarli o'zgarishni ko'rsatib, o'tgan yilga nisbatan 17 bandga oshib, 68 bandga yetdi. Istiqboldagi kutilmalar 11 bandga (68 dan 79 gacha), joriy holat indeksi esa 22 bandga (34 dan 57 gacha) o'sdi. Tadqiqotlarga ko'ra, xizmatlar sektoridagi tadbirkorlarning 47 foizi joriy vaziyatni "yaxshi" deb baholagan, 39 foizi oxirgi uch oyda ijobiy siljish kuzatilganini bildirgan va 71 foizi kelgusida talab oshishini kutmoqda.

Qurilish tarmog'ida esa nisbatan mo'tadil o'sish kuzatildi: umumiy indeks 4 bandga ko'tarilib, 61 bandni tashkil etdi. Joriy holat indeksi 15 bandga o'sib, 49 bandga yetdi. Biroq istiqboldagi kutilmalar indeksi 9 bandga pasayib, 73 bandni tashkil etdi. So'nggi uch oy davomida qurilish korxonalarining 36 foizi biznes holati yaxshilanganini bildirgan bo'lsa, 21 foizi kelgusida vaziyat barqaror qolishini taxmin qilmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda biznes muhitining dinamikasi (review.uz, n.d.)

O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsa-da, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Avvalo, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi kichik biznes subyektlarining kengayishiga to'sqinlik qilmoqda. Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar yuqori garov talablari va foiz stavkalari tufayli barcha tadbirkorlar uchun birdek qulay emas. Ikkinchi muammo — malakali kadrlar ta'minoti. Aksariyat kichik biznes vakillari zamonaviy menejment, marketing va raqamli texnologiyalarni joriy etishda yetarli bilim va ko'nikmaga ega emas. Uchinchi muammo sifatida ichki bozorda raqobatning adolatli shakllanmagani va ayrim hududlarda katta korxonalar

ustunlikka ega ekani qayd etilishi mumkin. Shuningdek, tashqi savdoda eksport mahsulotlarining xalqaro standartlarga mos emasligi, logistika infratuzilmasining to'liq rivojlanmagani ham kichik biznesning global bozorga kirib borishini qiyinlashtirmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda biznes muhiti ijobiy tendensiyalarni namoyon etmoqda. Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida eng katta optimizm kuzatilayotgan bo'lsa, xizmatlar sohasi o'rtacha, ammo barqaror o'sishni ko'rsatmoqda. Qurilish sektori esa mavjud o'zgarishlarga moslashib, nisbatan barqaror rivojlanish tendensiyasini saqlab qolmoqda.

Xulosa va takliflar.

2020–2025-yillar tahlillari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining asosiy drayveri sifatida shakllanmoqda. Uning YaIMdagi, sanoat, qurilish, xizmatlar va tashqi savdodagi ulushi izchil o'sib bormoqda. Biroq mavjud muammolarni bartaraf etmasdan turib, kichik biznesning to'liq salohiyatidan foydalanish mumkin emas.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflar shakllantirildi:

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish – kichik biznes uchun imtiyozli kredit liniyalari va grant dasturlarini kengaytirish, garov talablari bo'yicha yengilliklar yaratish.

Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash – oliy ta'lim muassasalari va kasb-hunar markazlari orqali kichik biznes uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish, biznes-inkubatorlarni faol qo'llab-quvvatlash.

Raqobat muhitini yaxshilash – monopoliyaga qarshi siyosatni kuchaytirish, kichik biznesning ichki bozorda teng sharoitlarda faoliyat yuritishini ta'minlash.

Eksport salohiyatini oshirish – eksportchi kichik biznes korxonalari uchun xalqaro sertifikat olish xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish, logistika markazlari va transport infratuzilmasini rivojlantirish.

Raqamlashtirishni jadallashtirish – elektron savdo platformalarini rivojlantirish, kichik biznes subyektlari uchun soliq va buxgalteriya hisobini to'liq raqamlashtirish.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Asian Development Bank (2023) *Key indicators for Asia and the Pacific 2023*. Manila: ADB, 300 p.

Karimov, I. (2022) 'Small business development in Uzbekistan: Current trends and challenges', *Journal of Central Asian Studies*, 19(2), pp.45–63.

Mamatqulov, M. (2020) *Tadbirkorlik iqtisodiyoti*. Samarqand: SamDU nashriyoti, 280 b.

OECD(2022) *SME and entrepreneurship policy in Uzbekistan*. Paris: OECD Publishing, 210p.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2024) *O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik: Statistik to'plam*. Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi, 220 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022) Farmon: 'Yangi O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida', 27 yanvar, №PF–60.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023) Qaror: 'Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida', 12 iyun, №PQ–231.

Porter, M. (1985) *Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance*. New York: Free Press, 592 p.

UNCTAD (2024) *World investment report 2024*. Geneva: UNCTAD, 240 p.

World Bank (2023) *Uzbekistan economic update: Navigating reforms*. Washington, D.C.: World Bank, 65 p.

Xodiev, B.X. & G'ulomov, Sh.R. (2021) *Tadbirkorlik faoliyati nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot, 356 b.

Review.uz (n.d.) 'Indeks biznes-klimata dostig dvuxletnego maksimuma – Oprosi CEIR'. Available at: <https://review.uz/uz/post/indeks-biznes-klimata-dostig-dvuxletnego-maksimuma-opros-ceir?q=tadbirkorlik>

Parliament.gov.uz (n.d.) 'Maqola'. Available at: <https://parliament.gov.uz/articles/2101>